

# **O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**SENTYABR, 2025-YIL**



**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-297-8**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 8-sentyabr

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-297-8**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Normatov Yodgor, Baxodirov Zafar, Tursunov Shodmon*

MAPPING TYPICAL IRRIGATED SEROZEM SOILS BASED ON SLOPE LEVEL INDICATORS  
USING GIS TECHNOLOGIES ..... 5-8

### TARIX FANLARI

*Xusanov Ximmat*

BUYUK BRITANIYA PROTEKTORATI – MISR BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA ..... 9-11

*Kholmatov Shukurillo*

ANALYSIS OF RESEARCH ON THE HISTORY OF THE ARAB CALIPHATE OCCUPATION OF  
CENTRAL ASIA (BASED ON ENGLISH-LANGUAGE RESEARCH)..... 12-17

### IQTISODIYOT FANLARI

*Ergasheva Parizoda*

IMPLEMENTATION CHALLENGES OF FINANCIAL INFORMATION SYSTEMS IN DEVELOPING  
COUNTRIES ..... 18-26

*Yuldashev Baxtiyor*

MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA ERKIN IQTISODIY  
ZONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH ..... 27-30

### FILOLOGIYA FANLARI

*Zokirova Shaxzoda*

TELEVIDENIYE – JAMOAT MULOQOTI MAYDONI SIFATIDA: RITORIK TAHLIL ..... 31-33

### YURIDIK FANLARI

*Qayumberdiyeva Dildora*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA MEDIATSIYA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 34-38

### PEDAGOGIKA FANLARI

*G'aniyev Shaxzod*

TARIX O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA RAQAMLI METODIK QO'LLANMALARNI ISHLAB  
CHIQISH VA SINOV DAN O'TKAZISH ..... 39-44

*Ahmedova Nargiza, Maxmudov Dilshod*

SUN'YIY INTELLEKT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR ..... 45-48

*Khazratova Zukhra*

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PROMOTING AUTONOMY LEARNING ..... 49-51

*Kumush Xamrakulova*

OILA VA MAKTAB INTEGRATSIYASI ORQALI O'QUVCHILARDA MUSTAQIL TA'LIM  
KO'NIKMALARINI RIVOJLANТИRISH ..... 52-57

## **TIBBIYOT FANLARI**

*Nurmamatova Nigina*

DEMENSIYA PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY PSIXOTERAPEVTIK YONDASHUVLAR VA  
INNOVATSION TERAPIYA IMKONIYATLARI: O'ZBEKİSTON SOĞ'LIQNI SAQLASH TİZİMİDA  
İSTİQBOLLAR ..... 58-60

*Temirova Umidaixon*

НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ДИСМЕНОРЭЮ: ОБЛЕГЧЕНИЕ БОЛИ ПУТЕМ ЗАКРЫТИЯ  
ДЕФИЦИТОВ ОРГАНИЗМА ..... 61-63

*Solijonova Asalbonu*

ATOPIK DERMATIT TARIXI VA OZIQ-OVQAT ALLERGIYASI BILAN BOĞ'LIQLIGI ..... 64-68

## YURIDIK FANLARI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEDIATSIYA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH

**Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi,**  
TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning  
Huquqiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi  
Tel: +998 99 813 66 69

**Annotatsiya.** Tezisda O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunida mavjud bo'shliqlar, xususan mediativ kelishuvni ijro etish mexanizmining yo'qligi muammo sifatida ko'rsatib o'tilgan. Muallif qonunchilikka mediatsiya kelishuvlarini majburiy ijro etish tartibini kiritish, Singapur Mediatsiya Konvensiyasini ratifikatsiya qilish va "onlayn mediatsiya" institutini milliy qonunchilikka joriy etish zarurligini asoslagan.

**Kalit so'zlar:** Mediatsiya, mediativ kelishuv, ijro mexanizmi, onlayn mediatsiya, Singapur Konvensiyasi.

### IMPROVING MEDIATION LEGISLATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi,**  
Lecturer, Department of Legal Sciences,  
M.S. Vosiqova Academic Lyceum under  
Tashkent State University of Law

**Annotation.** The thesis highlights gaps in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Mediation," particularly the absence of an enforcement mechanism for mediated settlements. The author proposes legislative amendments introducing mandatory enforcement of mediation agreements, the ratification of the Singapore Convention, and the incorporation of the "online mediation" institution into national legislation.

**Key words:** Mediation, mediated settlement, enforcement mechanism, online mediation, Singapore Convention

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning maqsadi mediatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Ma'lumki, ushbu Qonun quyidagi sohalarda: huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan amal qilishi belgilangan. Bundan tashqari ushbu "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni mediatsiyada qatnashmayotgan uchinchi shaxslarning huquq hamda manfaatlariga, shuningdek, jamoat manfaatlariga daxl qiladigan munosabatlarga nisbatan qo'llanmaydi.

Mediatsiyada, arbitraj yoki sud muhokamasidan farqli o'laroq, taraflar konsensus orqali nizoni hal qiladilar. Natijada tomonlarning mediatsiya kelishuvining har bir bandi bo'yicha kelishib olishlari uning ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi imkoniyatlarini oshiradi. Lekin har doyim ham taraflar mediativ kelishuvni amalga oshirmaydilar, ya'ni hech kim taraflar mediativ kelishuvni ixtiyoriy ravishda amalga oshirishlariga kafolat bera olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunida ham mediativ kelishuvning ijro etilishi bilan bog'liq muommoli holatlarga guvoh bo'lamiz. Unga ko'ra, taraflar

tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo'yicha taraflar kelib chiqqan nizo yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, yozma shaklda mediativ kelishuv tuzadilar.

Bundan tashqari, "mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo'lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi" – degan qoida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra mediativ kelishuvning amalga oshirilishi taraflarning ixtiyoriga qoldirilgan.

Bu esa o'z navbatida mediativ kelishuvni ijro etish mexanizmi mavjud emasligidan darak beradi. Yuqorida tahlil qilganimizdek ijro mexanizmining yo'qligi, mediativ kelishuvning nizolarni hal etishda smarasiz vositaga aylanishiga olib keladi.

Qonunchilikdagi ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun, O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuniga mediativ kelishuvni ijro etish bilan bog'liq normalar kiritilishini taklif qilmoqchiman.

Unga ko'ra, mediativ kelishuv taraflar yoki ulardan biri tomonidan taqdim etilgan mediativ kelishuvni majburiy ijroga qaratish to'g'risidagi arizasiga ko'ra, sud buyrug'i asosida majburiy ijroga qaratiladi.

Mediativ kelishuvni majburiy ijroga qaratish to'g'risidagi sud buyrug'i chiqarilishi, nizo yuzasidan ishning barcha holatlari sud tomonidab ko'rib chiqiladi digan xulosa kelib chiqmasligi kerakligini, alohida, ta'kidlab o'tmoqchi edim. Sudning ushbu vaziyatdagi asosiy vazifasi bu mediativ kelishuvni qonuniyligi ya'ni O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, jamoat tartibotiga, odob-ahloq qoidalariiga zid emasligini hamda ushbu mediativ kelishuv haqiqatdan ham mediatsiya jarayonida tuzilganligini tekshirishi bilan kifoyalanadi.

Bundan tashqari Qonunga mediativ kelishuvni ijrosi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi qoidalarni kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Mediativ kelishuvga qo'yilgan talablar:

mediator to'g'risidagi ma'lumotlar;

mediatsiya joyi va vaqt;

tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

mediatsiya jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;

qonunda keltirilgan masalalar bo'yicha mediatsiyani amalga oshirish to'g'risidagi kelishuv;

mediatsiya jarayonida taraflar erishgan kelishuv shartlari;

shartnoma tuzilgan sana;

taraflar hamda mediatorning imzosi.

Keyingi qoida shundaki, mediativ kelishuv mediator hamda taraflar tomonidan shaxsan imzolanadi. Ushbu qoida mediativ kelishuv mediatsiya jarayonida imzolanganligini isbotlaydi. Bundan tashqari, mediator kelishuv taraflariga kelishuv bitimining nusxasini taqdim etishi shart.

Mediatsiya kelishuvini ijro etish to'g'risidagi ariza sudga barcha taraflar birgalikda yoki taraflardan biri tomonidan boshqa taraflarning ochiq roziligi bilan taqdim etilishi kerak, agar taraflardan biri to'g'ridan to'g'ri roziligi holatlari mavjud bo'lmasan hollarda, mediativ kelishuv ariza berish uchun asos bo'la oladi.

Agar sud mediativ kelishuv mazmuni qonunga xilof, ijro etilishi mumkin bo'lмаган yoki nizoni mediatsiya tartibida hal etish ehtimoli yo'q deb hisoblasa, sud mediativ kelishuvni ijro etish to'g'risidagi arizani rad etishi mumkin.

Ushbu mexanizmning joriy etilishi quyidagi qulayliklarga olib keladi:

nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutining roli yanada kuchayadi;

taraflar o'z huquqlarini ximoya qilish maqsadida yana sud protsessiga murojat qilishdan xalos etadi.

Ikkinci taklif – Singapur Mediatsiya konvensiyasi O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishi chet el mediatsiya shartnomalarini tan olish hamda ijroga qaratish imkonini taqdim etadi.

Chunki hozirgi vaqtida xalqaro savdo va ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda, transchegaraviy bitimlar ko'payib borayotgan sub'ektlar, jumladan, kichik va o'rta korxonalar tomonidan tuzilmoqda. Ishbilarmenlik operatsiyalari ko'pincha milliy chegaralar orqali amalga oshiriladi, shuningdek, elektron tijoratdan foydalanishning ko'payishi tufayli nizolarni hal qilishning qulay va samarali tizimlariga bo'lgan ehtiyoj katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bizga bunday mexanizm kerak.

Singapur konvensiyasi xalqaro tijorat vositachiligi uchun muhim bosqichdir, chunki u xalqaro mediatsiya kelishuvlarini tan olish va ijro etishning yagona rejimini o'rnatadi. Singapur konvensiyasi kuchga kirgunga qadar mediatsiya kelishuvlarini qo'llash bo'yicha kelishilgan rejimning yo'qligi mediatsiyadan kengroq foydalanish yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri sifatida qaralgan. Singapur mediatsiya konvensiyasi bu to'siqni bartaraf qiladi va shuning uchun korxonalar transchegaraviy nizolarni hal qilishda mediatsiyaga tayanishi mumkinligiga ko'proq ishonch hosil qilishdi, chunki zarurat tug'ilganda ular xalqaro mediatsiya kelishuvlarini bevosita amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Singapur konvensiyasi xalqaro savdoni yengillashtirish va xalqaro mediatsiya kelishuvlari uchun tezlashtirilgan rejimni o'rnatish orqali xalqaro tijorat nizolarida mediatsiyadan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Singapur konvensiyasi xalqaro tijorat vositachiligi sohasiga aniqlik va barqarorlik olib keladi, chunki endi korxonalar Singapur konvensiyasiga muvofiq xalqaro mediatsiya bo'yicha kelishuv bitimlarini to'g'ridan-to'g'ri tezkorlik bilan amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

Singapur konvensiyasi biror bir davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so'ng, sotuvchi masala kelishuv bitimi doirasida hal etilganligini isbotlash uchun kelishuv bitimiga murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Agar xaridor Singapur konvensiyasining Ahdashuvchi Tomoni bo'lgan yurisdiksiyada hisob-kitobni amalga oshirishga intilsa, hisob-kitob to'liq himoyalangan bo'ladi. Sotuvchi har qanday Ahdashuvchi Tomonda o'z tartib qoidalariiga muvofiq va Singapur konvensiyasida belgilangan shartlarga rioya qilgan holda arbitraj qarorlari yoki qarorlari ijro etilishi kabi to'g'ridan-to'g'ri kelishuv bitimini amalga oshirishi mumkin.

Ma'lumki, so'nggi o'n yillikda texnologiya hayotimizga tez kirib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Korxonalar, iste'molchilar va hukumatlar o'zlarining odatiy vazifalarini kompyuterlar yordamida bajarishni boshladilar, odamlarning vazifasini ma'lum bir miqdorda chekllovchi, ilgari noma'lum bo'lgan aloqa vositalari jamiyat hayotiga kirib keldi. Agar ilgari texnologiyalar faqat dasturiy ta'minot muhandislari va kichik IT hamjamiyatini qiziqtirgan bo'lsa, endi ular jamiyatning har bir qatlamiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Natijada,

hozirgi kunda, IT-sohasida faoliyat yuritayotgan shaxslar ko'paymoqda shu bilan birga, ishi hech qachon kompyuterlar bilan bog'liq bo'lмаган shaxslar endi zamonaviy texnologik tendentsiyalarga moslashishga intilishmoqda.

Hozirgi kunda, onlayn rejimga o'tmagan sohani tasavvur qilish qiyin: bank, sug'urta, konsalting, ta'lim, tijorat, iste'molchi xaridlari, ko'ngilochar va hatto hukumatlar idoralarda ham online xizmat ko'rsatish dasturlari ishga tushmoqda.

E'tiborni "online mediatsiya" atamasiga qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan davlatlarda nizolarni hal etishda online mediatsiyadan keng foydalanimoqda.

Online mediatsiya bu - aloqa-axborotlaridan foydalangan holda mediatsiya jarayonlarini tashkil qilish hamda o'tkazishdir. Online mediatsiyaning o'ziga hos tomoni bu nizolarni tez hamda samarali usullarda hal etishidir.

Online mediatsiya quyidagi afzallikkarga ega hisoblanadi:

Vaqt hamda moliyaviy resurslarni tejash;

Har qanday sharoitlarda nizoni hal etish sharoitining mavjudligi. Ya'ni turli davlarda joylashgan taraflar o'rtaсидаги nizoni hal qila olish imkoniyati;

Nizoniga har tomonlama e'tiborni qaratish;

Ishga oid hujjatlarni tez uzatish hamda qabul qilib olish imkoniyati va boshqalar.

Online mediatsiyada foydalanimadigan axborot vositalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: VoIP, aqlii messenjerlar, video konferensiya va boshqalar kabi ba'zi zamonaviy axborot va aloqa vositalari.

ODR harakatining namoyondalar E. Katsch va J. Rifkin hatto texnologiyaning alohida holatini tafsiflash uchun "to'rtinchı taraf" atamasini kiritdilar. Kompyuter vositalari jarayonlarni tashkil qilish, ma'lumotlarni to'plash va saralash, tegishli materiallarni tomonlarga qulay vaqtda taqdim etish, uchrashuvlar va hujjatlarni topshirish muddatlarini eslatish, oldingi amaliyotni tahlil qilish va shu asosda muayyan ish bo'yicha yechimlarni taklif qilishda yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, dasturlar insondan ko'ra ko'proq narsani qila oladi.

Mening taklifim - "Online mediatsiya" amaliyotini joriy qilish hamda uning huquqiy asosini shakllantirishdir. Ushbu amaliyotning joriy qilinishi orqali mediatsiyaning jozibadorligi, ya'ni unga murojaat qilish holatlarining oshishiga, erishiladi. Shuningdek, nizolarni hal etishda bu kabi samarali imkoniyatlarning mavjudligi chet el investorlarning hech ikkilanmay O'zbekistonga kirib kelishi hamda faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Hozirda, ko'plab davlatlarda "online mediatsiya dasturlari" yaratilgan bo'lib ushbu dasturlar orqali nziolarni hal qiladilar. Ulardan biri bo'lgan "RICS" nizolarni online hal etishda mashxur dasturlardan biri hisoblanadi.

Ushbu online xizmat ko'rsatish tashkiloti ko'plab davlatlar xizmat joylariga, shuningdek, bir qancha davlat domenlarida o'z dasturlariga egadir.

Bu kabi dasturlarning qulayligi shundaki, har qanday shaxs ya'ni mediatsiya tartib-taomilidan xabari bo'lмаган odam ham ushbu dastur orqali nizoni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushu dasturda "online mediatsiya" to'g'risidagi yo'riqnomalar mavjud bo'lib, ushbu yo'riqnomalar orqali har qanday shaxs mediatsiya jarayoni qoidalari to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega bo'la oladi. Chunki ushbu yo'riqnomaning tili soda, barcha uchun tushunarli tilda bayon etilgan.

Bundan tashqari ushbu dasturda online mediatorlar ro'yxati ham shakillantirilgan bo'lib, foydalanuvchilar hech qanday qiyinchiliksiz professional mediatorlarni tanlay olishi va ular bilan aloqa o'rnatishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu kabi dasturlar shu qadar avtomatlashtirilganki, oqibatida foydalanuvchilar tez va oson online mediatsiya jarayonini boshlay oladilar.

Yana bir afzalligi shundaki, bu kabi online mediatsiya dasturlari an'anaviy mediatsiya dasturlariga qaraganda pulni tejash imkoniyatini taqdim etadi. Chunki an'anaviy mediatsiyada mediatsiya o'tqaziladigan joy xarajati, shuningdek, u yerga borish kabi xarajatlar tufayli an'anaviy mediatsiya jarayoni qimmatroq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, texnika jadal sur'atlarda rivojlanayotgan zamonda yashar ekanmiz, bu kabi dasturlarni keng amaliyatga joriy qilish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

Shu kabi amaliyatning joriy qilinishi natijasida, milliy qonunchilikni ham "online mediatsiya"ni tartibga soluvchi yangi normalar qabul qilinishiga olib keladi.

Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, "Mediatsiya to'g'risidagi" Qonunning asosiy tushunchalar deb atalmish 4-moddasiga quyidagi tushunchalarni kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, "online mediatsiya", "online mediator", "online mediatsiya tartib taomili" va boshqalar.

Shu bilan birga, "aloqa vositalari orqali tuzilgan mediativ kelishuv yozma ravishda tuzilgan mediativ kelishuv bilan teng"ligi to'g'risidagi norma qonunchilikka kiritilishi kerak.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Масадиков, Ш. М. (2014). Проблемы правового регулирования медиации. Монография. Ташкент: ТГЮУ. – 155 с.
2. Джанашиа, А. З. (2015). Основные направления практики медиации в США (на примере штата Северная Каролина). Вестник МГУ им. А. А. Кулешова. Серия «Педагогика. Психология. Методики», (1), 57–62.
3. Mozes, M. L. (2020). Principles and Practice of International Arbitration.
4. Pirie, J. A. (2000). Alternative Dispute Resolution: Skills, Science, and the Law. Toronto: Irwin Law.
5. Chua, E. (2015). The Future of International Mediated Settlement Agreements: Of Conventions, Challenges and Choices. Tan Pan Online: A Chinese-English Journal on Negotiation. Singapore Management University, School of Law.
6. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni. (2018-yil 3-iyul).
7. United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL). Model Law on International Commercial Conciliation.
8. United Nations. (2019). United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (Singapore Convention on Mediation).
9. Katsch, E., & Rifkin, J. (2001). Online Dispute Resolution: Resolving Conflicts in Cyberspace. San Francisco: Jossey-Bass.
10. RICS. (n.d.). RICS Online Dispute Resolution Services. <https://www.rics.org>

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 8-sentyabr

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 69 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 8-sentyabr

**ISBN 978-9910-09-297-8**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.